



ADABIY TA'SIR VA TAQLIDGO'YLIK MASALALARI

Saidova Rizvon Mustofo qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

3-bosqich tayanch doktoranti

saidovarizvongul@gmail.com. Tel: +99890 539 15 91

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiy ta'sir tushunchasi yoritilgan bo'lib, ijod jarayonida adabiy ta'sirning qaysi o'rinlarda yuzaga kelishi yoritilgan. Adabiy ta'sir natijasida fikrlar, va g'oyalar asoslanishi, dalillanishi kabi jarayonlarga to'xtalib o'tilgan. Tog'ay Murod ijodi tahlilga tortilib, adabiy ta'sir va taqlidgo'ylik o'rtasidagi farqlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy ta'sir, taqlidgo'ylik, havasmandlik, mushtaraklik, lug'at, integratsiya.

Аннотация: В данной статье освещается понятие литературного влияния, в каких местах происходит литературное влияние в процессе творчества. В результате литературного воздействия затрагиваются такие ситуации, как обоснование, доказательство мыслей и идей. Творчество Тогая Мурада подвергается анализу, показывая различия между литературным влиянием и подражанием.

Ключевые слова: литературное влияние, подражание, зависть, общность, словарный запас, интеграция.

Abstract: This article highlights the concept of literary influence, in which places literary influence occurs in the creative process. As a result of literary influence, situations such as justification, proof of thoughts and ideas are affected. Togai Murad's work is analyzed, showing the differences between literary influence and imitation.

Keywords: literary influence, imitation, envy, community, vocabulary, integration.

Adabiyotshunos olim Ibrohim G'ofurov ta'kidlaganidek: Olam doimiy harakatda: o'sib-o'zgarishda, yangilanish va yasharishda, tug'ilish va quvonishda. Sharq bilan G'arb o'rtasiga – buni asl xalqimizning tilida kun botish va kun chiqish deb shoirona atab kelishgan – zarracha ham g'ov qo'yib bo'lmaydi. Tabiatning o'zida bunday g'ov va to'g'onning o'zi yo'q. Lekin Quyoshning Sharqdan chiqishi hammaga ma'lum. Quyosh yo'lga hech qanday g'ov bo'lmaganidek, Yer yuzida ham o'zaro foydali va ezgu bordi-keldilar doim davom etib kelgan, insoniyat bir-birini tanigan bilgan, bir-biridan o'rgangan, bir-biriga qarab qaddi-qomatini rostlagan [1;1]



Tabiatdan andoza olgan qonuniyatlarni hayotimizda ko'plab uchratishimiz mumkin. Shulardan biri bu – adabiy ta'sir masalasidir. Adabiyot olamida ijod qilayotdan har bir san'atkor ham o'zigacha yaratilgan asarlardan ta'sirlanadi, bir-biridan o'rganadi va o'rgatadi. Bu adabiyotshunoslikda, badiiy ijod qonuniyatlaridan biridir. Qadimdan Sharqning G'arbga va G'arbning esa Sharqqa ta'siri ostida yaralgan asarlar talaygina.

Adabiyot chegara bilmaydi. Bir millat kuychisi boshqa bir millatning ham sevimli ijodkori hisoblanishi, shubhasiz [2;3] bo'lganidek, adabiy ta'sir ham chegara bilmaydi. Nodir asar qo'liga tushgan kitobxon ham, adabiyot ixlosmandi-yu, adabiyotshunoslar ham o'qib o'rgangan asarlaridan ta'sirlanishi oqibatida kitobxonning hayot tarzi o'zgarsa yoki savollariga kitobdan javob topsa, san'atkor esa ijodiy ta'sir asosida badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishi mumkin.

Adabiy ta'sir tushunchasi adabiyot taraqqiyotida muhimdir. Adabiy aloqa qamrovida shakllanib kelgan bu tushuncha yordamida adabiyot doimiy tarzda rivojlanib, yangilanib boradi. Jahon va muayyan xalq adabiyoti turli xalqlar va ularning madaniyatini qamrab oladi. Adabiy ta'sir orqali adabiyotdan olgan ta'sir kuchi boshqa xalq adabiyotiga, uslublariga va janrlariga ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, har bir xalqning adabiyotida o'sha xalqning madaniyati va o'ziga xos dunyoqarashi aks etgan bo'ladi. Ustoz ijodkorlarning ijodiy ta'siri boshqa san'atkorlarda uslub, janr, mavzu va g'oyalarni o'zlashtirish orqali namoyon bo'ladi. Buyuk ijodkorlarning o'ziga xos uslubi keyingi avlod ijodkorlariga ham ta'sir qilib adabiyot rivojiga hissa qo'shadi. Ko'plab adabiy shaxslar o'zlarining ijodiy maktablarini yaratish orqali keyingi avlodlarga ijodiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, adabiy ta'sir hodisasi har qanday shaxsning ijodkor sifatida shakllanish bosqichida eng muhim jarayonlardan bir bo'lib, adabiy jarayonda tabiiy ravishda yuzaga keladigan, bir millat hamda millatlararo adabiy aloqalar, bir davr yoki turli davr adabiyotlari bilan ma'naviy tafakkurni boyitish asosida yuzaga keladigan jarayon. Adabiy ta'sir natijasi ijodkor shaxsni qalam tebratishga undasa, oddiy kitobxonni chuqur o'yga toldirishga, xulosalar chiqarishga asarga baho bera olish ko'nikmasini shakllantirishga turtki bo'ladigan hodisa demakdir. Adabiy ta'sir natijasida nafaqat yangi bir asar yaratilishi, balki jahonning taniqli olimlari o'z fikrlarini dalillash maqsadida ham faktlarga asoslanib o'z fikr va g'oyalarini xalqqa yetkazishi mumkin.

Xalqimizning taniqli adibi Tog'ay Murod asarlaridan ijodiy ta'sirlanib, jahon xalqlari tadqiqotchilari adib asarlaridan parchalar olib o'z mushohadalarini tahlilida foydalangan hollarni ham kuzatishimiz mumkin. Tog'ay Murod asarlarida inson tabiatidagi qaltis jarayonlarni ifodalashga urinadi. U o'z yo'nalishiga ega adib. Adabiyotshunos A. Rasulov nosirning ijodiy merosi haqida to'xtalib shunday yozadi: "Tog'ay Murod adabiyotga dangal kirib keldi. Shartta burildi-yu, hayotdan ketdi qoldi". Undan o'n o'n besh kichik asar, to'rt qissa, ikki roman nari borsa uch jildga jo bo'lgulik meros qoldi. [3;12] undan qolgan adabiy meros oz bo'lsa-da har biri chuqur mazmuni, ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalari,





jonkuyarligi bilan adabiyotimizning durdona asarlariga aylanib ulgurgan. Adib “Otamdan qolgan dalalar” romani bilan o‘zbek xalqiga haykal qo‘ydi.

Tog‘ay Murod asarlari obrazi poetikasi bir oyog‘i bilan milliy, ikkinchisi bilan umuminsoniy qadriyatlarda sobit turadi. O‘zbek adabiyotini dunyoga olib chiqish uchun targ‘ibot ishlari muhim. Rudolf Radler tahriri ostida Germaniyaning Myunxen shahrida bosilgan “Kindlarning yangi adabiyot lug‘ati” (“Kindlers Neues Literatur Lexikon”, Munchen, 1998) degan ensiklopedik lug‘atning 22 jildida Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” (Der Abend, als das Pferd Wicherte) asari turibdi. Ensiklopedik xarakterdagi bu lug‘at Yevropada juda mashhur.. Maqola muallifi Zigrid Klaymixel o‘z fikri isboti uchun qissadan to‘rtta ko‘chirma olibdi. Bu holat adib asarlarining xalqaro maydondagi o‘rnini ko‘rsatadi. [4;13]

Muayyan yirik asar yohud ijodkorning yaxlit ijodiga kuchli turtki bergan, ijodiy ta’sir etgan hayotiy va badiiy estetik omillarni xolis yoritish ehtiyoji adabiy jarayon uchun hamisha dolzarb masalalardan biridir. Adabiy ta’sir masalasi tahlilida yozuvchi shaxsining ma’naviy olami, dunyoqarashi, estetik tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni kashf etish, badiiy asar mazmunini chuqur anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarning yetuk yoki sayoz bo‘lishi yozuvchining ijodiy salohiyatiga bog‘liq. Adabiy ta’sir ijodkor dunyoqarashi va manaviy olamini kengaytiruvchi, badiiy asarining ta’sirchanligini oshirishiga yordam beruvchi omillardan biri desak mubolag‘a bo‘lmas. Ijodiy ta’sir yangi bir asar, obrazlarning yaratilishiga turtki bo‘lsa yoki asardan olingan ta’sir yangi bir asar g‘oyasi rivojiga xissa qo‘shsa asl ijodiy ta’sir deb baholaymiz. Adabiy ta’sir va taqlidchilikning o‘ziga xos farqlari mavjud bo‘lib, ko‘r-ko‘rona ergashish, taqlidgo‘ylik asosida yaratilgan asar yoki uning elementlarini ijodiy ta’sir oqibati sifatida baholay olmaymiz. Ba’zan ayrim asarlarda ko‘plab mushtaraklikka duch kelamiz. Mushtaraklik bir yozuvchining boshqa bir adib ilgari surgan g‘oyani ijodiy rivojlantirib, yangi adabiy konseptsiya yaratishga sabab bo‘lgani ham, bir qalamkashning boshqa bir ijodkor asari yoki asarlariga yuzaki taqlid qilishini ham anglatishi mumkin [5;73]. Taqlid ijodiy jarayon avvalida ustozlar izidan borishda bir amaliyot sifatida foyda berishi mumkin. Biroq xaqiqiy talant egasi san’atkor ijodining o‘ziga xos sifatlarini ongli chuqur anglaydi va o‘z mahoratiga ega bo‘ladi. Anglash asosida taqlidgo‘ylikdan qochib, o‘z so‘ziga ega bo‘lishga urinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, adabiy ta’sir chegaralanmagan qadimiy qonuniyat bo‘lib, badiiy adabiyot rivojida integratsiyalashgan o‘rni bilan jahon adabiyoti rivojiga ham hissa qo‘shib kelmoqda. Olimlar, tadqiqotchilar va ijodkorlar o‘z g‘oya va fikrlarini yanada chuqur asoslash maqsadida ijodiy ta’sirlangan yoki kuchli ta’sirlangan o‘rinlar bilan o‘z ishlarida foydalanishi va fan va badiiy adabiyot taraqqiyoti rivojida ahamiyatlidir. Adabiy ta’sir va taqlidgo‘ylik tushunchalari o‘zaro farqli tushunchalar bo‘lib, adabiy ta’sir orginal yangi g‘oya, yo‘l, usul kabilar bo‘lsa, taqlidgo‘ylik badiiy mahoratdan holi qaytariq, takrorlash demakdir.





FOYDALANILGA ADABIYOTLAR

1. I.G'ofurov

<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/hayotbaxsh-soz-taniqli-adabiyotshunos-olim-va-tarjimon-ibrohim-gafurov-bilan-suhbat.html>

2. F. Boynazarov. Jahon adabiyoti. Musiq. T.: 2006. 3-b

3. Suvanov Z. PhD dissertatsiyasi 12-b

4. Niyozova M. Ingliz va O'zbek yozuvchilari ijodida adabiy ta'sir muammosi magist darajasini olish uchun magistrlik dissertatsiyasi. Buxoro – 2012